QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.189

INSON VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDA TA’LIMNING FALSAFIY FUNKSIYALARI

Ergasheva Nodira Toxir qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti
ORCID: 0009-0008-9316-7489
Email: ergashevanodira231@gmail.com
Manshrabov Mansurxon Shuhrat o‘g‘li
Samarqand davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar o‘qitish metodikasi (Ma’naviyat asoslari)yo‘nalishi magistranti
Jonuzoqov Ma’murjon Isobek o‘g‘li
Samarqand davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar o‘qitish metodikasi (Ma’naviyat asoslari)yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson va jamiyat munosabatlarida ta’limning falsafiy ahamiyati, uning shaxs kamoloti va ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Ta’limning insonni ijtimoiylashtirish, ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlashdagi vazifalari yoritiladi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida inson omilining ahamiyati, inson kapitalini shakllantirish va ta’lim tizimini takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: inson, jamiyat, ta’lim, tarbiya, falsafiy yondashuv, ijtimoiylashuv, inson omili, inson kapitali, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy taraqqiyot.

ФИЛОСОФСКИЕ ФУНКЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА

Аннотация.В статье анализируются философское значение образования во взаимоотношениях человека и общества, его роль в развитии личности и общественном прогрессе. Раскрываются функции образования в процессе социализации человека, формировании его духовно-нравственных качеств, расширении мировоззрения и подготовке к активному участию в жизни общества. Особое внимание уделяется значению человеческого фактора в условиях развития гражданского общества, формированию человеческого капитала и совершенствованию системы образования.

Ключевые слова: человек, общество, образование, воспитание, философский подход, социализация, человеческий фактор, человеческий капитал, гражданское общество, общественное развитие.

PHILOSOPHICAL FUNCTIONS OF EDUCATION IN HUMAN–SOCIETY RELATIONS

Abstract. This article examines the philosophical significance of education in human–society relations and its role in personal development and social progress. It explores the functions of education in human socialization, the formation of moral and ethical values, the expansion of worldview, and the preparation of individuals for active participation in society. Particular attention is paid to the importance of the human factor in the development of civil society, the formation of human capital, and the improvement of the education system.

Keywords: human, society, education, upbringing, philosophical approach, socialization, human factor, human capital, civil society, social development.

KIRISH. Jamiyatning vujudga kelishi, uning rivojlanish jarayoni hamda kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning shakllanish asoslari qadimdan olimlar va faylasuflarni qiziqtirib kelgan masalalardan biri hisoblanadi. Jamiyatni oddiy insonlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro mehnat taqsimoti, muloqot, bilim va hayotiy tajriba asosida birlashgan kishilarning muayyan ijtimoiy uyushmasi sifatida tushunish lozim. Insonlarning bir-biriga yordam berishga, hamkorlik qilishga va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyoji jamiyat shakllanishining muhim omillaridan biri bo‘lgan. Bu jarayonda moddiy ehtiyojlar bilan bir qatorda ma’naviy qadriyatlar, ishonch va o‘zaro munosabatlar ham alohida o‘rin egallagan.

Jamiyat va inson falsafasining obyekti inson hamda jamiyat hayotiga oid falsafiy qarashlar, ularning tarixiy rivojlanishi va insonning ijtimoiy tizimda tutgan o‘rnini o‘rganish bilan belgilanadi. Ushbu fanning predmeti esa jamiyat taraqqiyoti, insonning tabiati, ijtimoiy mavqei, hayot mazmuni va ular bilan bog‘liq muammolarni falsafiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Ayniqsa, bugungi kunda inson hayotida yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy muammolar mazkur sohaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Zero, zamonaviy texnologiyalar, globallashuv va raqamli o‘zgarishlar insonning dunyoqarashi, qadriyatlari hamda jamiyatdagi munosabatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Insoniyat tarixida insonning kimligi, uning mohiyati va borliqdagi o‘rnini anglashga intilish doimo muhim masala bo‘lib kelgan. Shu maqsadda turli davrlarda ko‘plab falsafiy nazariyalar, gipotezalar va ta’limotlar yaratilgan. Qadimgi Hindiston va Xitoy faylasuflari inson tabiatini tana va jonning o‘zaro birligi orqali izohlaganlar. Ularning qarashlarida jonning tanadan mustaqilligi va ruhning abadiyligi haqidagi g‘oyalar muhim o‘rin tutgan. Qadimgi Eron va Turon mutafakkirlari esa inson va tabiat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka e’tibor qaratib, olamning asosini tashkil etuvchi to‘rt unsur-ni inson borlig‘i bilan ham bog‘liq holda talqin qilganlar [1].

Bugungi falsafiy ta’limotlarda ham insonning mohiyati, uning jamiyatdagi vazifasi va ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu masalalarni o‘rganishda zamonaviy sivilizatsiyaning qadriyatlari, ilm-fan taraqqiyoti va ijtimoiy o‘zgarishlarni hisobga olish talab etiladi. Chunki inson o‘zini anglash, faoliyatini boshqarish, hayotining mazmunini belgilash va kelajagi uchun mas’uliyatni his qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan mavjudotdir. Shu ma’noda, insonni faqat biologik jihatdan emas, balki

ijtimoiy, ma’naviy va madaniy xususiyatlari bilan birgalikda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat va inson haqidagi falsafiy qarashlar insoniyat tafakkuri taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim o‘rin egallab kelgan. Inson muammosi faqat falsafaning emas, balki tarix, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va boshqa ijtimoiy fanlarning ham asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. Bu fanning asosiy maqsadi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ularning rivojlanish qonuniyatlari va inson hayotiga ko‘rsatadigan ta’sirini falsafiy nuqtayi nazardan o‘rganishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, insonning tabiiy va ijtimoiy xususiyatlarini tahlil qilish, uning jamiyat ta’sirida shaxs sifatida shakllanish jarayonini o‘rganish hamda ma’naviy va intellektual kamolotga erishishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillarni aniqlash fanning asosiy vazifalarini tashkil etadi. Bunda insonning ijtimoiylashuvi, ta’lim va tarbiya jarayoni, jamiyatdagi mavjud qadriyatlar hamda shaxsning ijtimoiy mas’uliyati o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Jamiyat va insonga oid falsafiy qarashlar kishilarning maqsadlari, manfaatlari, ehtiyojlari va e’tiqodlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Insonni jamiyatdan ajratilgan holda o‘rganish uning haqiqiy mohiyatini to‘liq anglash imkonini bermaydi. Chunki shaxsning dunyoqarashi, siyosiy va ijtimoiy pozitsiyasi, ma’naviy qiyofasi hamda hayotiy intilishlari muayyan ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. Shu sababli insonni o‘rganishda uning shaxsiy xususiyatlari bilan bir qatorda, yashab turgan jamiyati, ijtimoiy munosabatlari va ma’naviy muhitini ham hisobga olish zarur [2].

Ayniqsa, ta’lim jarayoni inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim orqali inson nafaqat bilim va kasbiy ko‘nikmalarni egallaydi, balki jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy mas’uliyatni ham o‘zlashtiradi. Shu jihatdan, ta’limning falsafiy vazifasi shaxsning mustaqil fikrlashi, o‘zligini anglashi, ijtimoiy voqelikka ongli munosabatda bo‘lishi va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy-intellektual asoslarni shakllantirishdan iborat.

Inson va jamiyat munosabatlarini o‘rganishda uzoq vaqt davomida asosan insonning ijtimoiy hayotdagi mavqei, jamiyat taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasi va amaliy faoliyatiga e’tibor qaratilgan. Biroq insonning ichki dunyosi, ma’naviy-madaniy qiyofasi, ruhiy holati va ularning shakllanish jarayoni ham alohida tadqiq etilishi zarur bo‘lgan masalalardir. Chunki insonni faqat ijtimoiy munosabatlar ishtirokchisi sifatida emas, balki o‘ziga xos dunyoqarash, qadriyat va ma’naviy ehtiyojlarga ega shaxs sifatida anglash lozim. Kishilik jamiyati tabiat va moddiy olamning uzoq tarixiy taraqqiyoti natijasida shakllangan bo‘lib, insonlar o‘rtasidagi hamkorlik va birgalikdagi faoliyat uning rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Jamiyat shakllangan ilk davrlardan boshlab insonning ijtimoiy hayotdagi o‘rni haqida turli falsafiy qarashlar va yondashuvlar ilgari surilgan. Ushbu qarashlarda insonning o‘zligini anglashi, bilim va tajribasini oshirishi, shaxs sifatida kamol topishi hamda faoliyat doirasining kengayib borishi masalalari muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, inson o‘z faoliyati orqali ijtimoiy

hayotga ta’sir ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, jamiyatdagi muhit, mavjud qadriyatlar va munosabatlar insonning dunyoqarashi hamda ma’naviy qiyofasi shakllanishiga ta’sir qiladi [3].

Tarixiy taraqqiyot davomida sivilizatsiyalarning almashishi va ijtimoiy tuzumlarning o‘zgarishi inson hayotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Har bir davrda insonning borlig‘i, hayot mazmuni, yashashdan maqsadi va jamiyat oldidagi mas’uliyati haqida yangi qarashlar shakllangan. Bunday o‘zgarishlar insonning o‘zini va atrofidagi olamni anglash jarayonini yanada chuqurlashtirgan. Shu sababli inson va jamiyat masalasi faqat tarixiy yoki ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki doimiy ravishda yangilanib boradigan falsafiy muammo sifatida ham ahamiyatlidir [4].

Ijtimoiy hayot turli manfaatlar, qarashlar va ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lgani sababli unda muayyan ziddiyatlar ham mavjud. Insonning borliqni bilishi, ijtimoiy voqelikni tushunishi va jamiyatdagi o‘z o‘rnini belgilashi ham ana shu murakkab jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotining jadallashuvi inson va ijtimoiy munosabatlarni yanada kengroq o‘rganishni talab qilmoqda. Bunda masalalarga bir tomonlama emas, balki tizimli, kompleks va har tomonlama yondashish muhim hisoblanadi.

Jamiyat tarixini kishilar o‘rtasida shakllangan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar rivoji orqali tushunish mumkin. Ushbu munosabatlarning o‘zgarishi va takomillashishi jamiyat taraqqiyotining asosiy belgilaridan biridir. Ijtimoiy muhitda insonning dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, atrofdagi voqea-hodisalarga munosabati va bilim darajasi shakllanib boradi. Har bir tarixiy davr o‘ziga xos ijtimoiy talablar, qadriyatlar va tarbiya tamoyillariga ega bo‘lib, ular shu davr shaxsining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi [5].

Ta’lim jarayoni ham aynan shu jihatdan jamiyat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlovchi muhim vosita hisoblanadi. Ta’lim orqali yosh avlod nafaqat ilmiy bilimlarni egallaydi, balki jamiyatda mavjud ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy me’yorlar va axloqiy tamoyillarni ham o‘zlashtiradi. Natijada insonning ijtimoiy hayotga moslashuvi, mustaqil fikrlashi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglash jarayoni rivojlanadi.

Ushbu yo‘nalishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Jamiyat haqidagi nazariy bilimlardan foydalanish orqali ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish.
- Yosh avlodda inson, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashga asoslangan izchil dunyoqarashni shakllantirish.
- Falsafiy mushohada va tahlil yordamida inson hamda ijtimoiy munosabatlarga nisbatan tanqidiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- Globallashuv sharoitida inson ma’naviyati, axloqiy qarashlari va ijtimoiy ongining o‘zgarish xususiyatlarini o‘rganish.
- Ta’lim va tarbiya vositasida shaxsning ma’naviy kamoloti, ijtimoiy faolligi hamda fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish.

Insonning kelib chiqishi, shakllanishi va jamiyatdagi o‘rnini o‘rganish ko‘plab fanlarning umumiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala murakkab va ko‘p qirrali bo‘lgani sababli uni faqat bitta fan doirasida to‘liq yoritish mumkin emas. Inson tabiatini

anglashda tabiiy fanlar bilan bir qatorda, falsafa, tarix, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarning ilmiy xulosalariga ham tayanish zarur [6].

Inson bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishda fanlararo yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, evolyutsion nazariya, antropogenez va antroposotsiogenez jarayonlariga oid ilmiy qarashlar insonning shakllanishi hamda jamiyat bilan bog‘liq rivojlanish bosqichlarini tushunishga yordam beradi. Biologik evolyutsiya insonning tabiiy rivojlanish xususiyatlarini izohlasa, ijtimoiy fanlar uning mehnat, muloqot, ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘rnini o‘rganadi.

Insonning kelib chiqishi masalasida ilmiy yondashuvlar bilan bir qatorda diniy-falsafiy qarashlar ham mavjud. Diniy ta’limotlarda insonning yaratilishi ilohiy qudrat bilan bog‘liq holda izohlanadi. Xususan, islom dinida insonning yaratilishi Allohning irodasi bilan bog‘lanadi. Islomiy manbalarda Odam Ato va Momo Havoning yaratilishi insoniyat tarixining boshlanishi sifatida talqin etiladi. Bu qarashlar insonning yaratilishi, hayot mazmuni va ma’naviy mas’uliyati haqidagi diniy tasavvurlarni o‘zida mujassam etadi [7].

Shunday qilib, inson va jamiyat munosabatlarini to‘laqonli anglash uchun tabiiy, ijtimoiy-gumanitar hamda diniy-falsafiy qarashlarni o‘zaro farqlagan holda o‘rganish muhimdir. Ayniqsa, pedagogika va falsafa fanlarining o‘zaro aloqasi ta’lim jarayonining mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Falsafa ta’limning maqsadi, mazmuni va inson kamolotidagi o‘rnini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qilsa, pedagogika ushbu maqsadlarni amaliy ta’lim-tarbiya jarayonida ro‘yobga chiqarish yo‘llarini belgilaydi.

Insonning yaratilishi va kelib chiqishi masalasiga diniy qarashlarda ham alohida e’tibor beriladi. Xususan, islom ta’limotiga ko‘ra, dastlab Odam Ato va Momo Havo yaratilgan bo‘lib, keyinchalik insoniyat ularning avlodlari orqali ko‘payib, yer yuziga tarqalgan. Ushbu qarash insonning kelib chiqishi va hayotdagi o‘rni haqidagi diniy tasavvurlarning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Insonning tabiat bilan munosabatlari rivojlanib, ijtimoiy hayotga kirib borishi natijasida jamiyat shakllangan. Dastlabki insonlar o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda mehnat qilgan, o‘zaro yordam va hamkorlikka asoslangan faoliyatni yo‘lga qo‘yganlar. Vaqt o‘tishi bilan bunday munosabatlar murakkablashib, jamiyatda turli ijtimoiy aloqalar va munosabatlar tizimi yuzaga kelgan. Ijtimoiy muhitning shakllanishi insonning imkoniyatlarini kengaytirib, uning ruhiy holati, dunyoqarashi va xulq-atvoriga ham ta’sir ko‘rsatgan. Aynan insonning jamiyatdagi xatti-harakati, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy munosabatlarini o‘rganish ehtiyoji sotsiologiya va psixologiya kabi fanlarning rivojlanishiga zamin yaratgan [8].

Shaxs jamiyat hayotiga moslashish jarayonida turli ijtimoiy munosabatlarga kirishadi, mehnat qiladi va o‘z faoliyati orqali mavjud muhitning o‘zgarishiga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, inson o‘z hayoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, atrofidagi kishilar bilan hamkorlik qilish va ijtimoiy muhitni takomillashtirishga intiladi. Har bir jamiyatda insonning tutgan o‘rni va uning ijtimoiylashuv darajasi ma’naviy-ma’rifiy hamda madaniy jarayonlarga bevosita ta’sir etadi. Bu esa shaxsdan mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish, o‘z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirish va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishni talab etadi.

Insonni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan muhim xususiyatlardan biri uning ongli fikrlashi, o‘z hayoti haqida mushohada yuritishi va kelajagini tasavvur qila olishidir. Uning hissiyoti, tafakkuri, estetik qarashlari va ma’naviy ehtiyojlari hayot davomida ijtimoiy muhit ta’sirida rivojlanib boradi. Inson atrofdagi voqea-hodisalarga shunchaki munosabat bildirish bilan cheklanmaydi, balki ularni baholaydi, go‘zallik va ezgulik haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Bunda ta’lim va tarbiya jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ta’lim insonning fikrlash doirasini kengaytirish bilan birga, uning estetik didi, axloqiy qarashlari va ma’naviy dunyosining boyishiga ham xizmat qiladi [9].

Umuman olganda, inson jamiyat bilan uzviy aloqada bo‘lgan holda ijtimoiylashadi va shaxs sifatida shakllanadi. Ushbu jarayonni o‘rganishda falsafa, sotsiologiya, psixologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning ilmiy yutuqlaridan foydalaniladi. Shuningdek, tarix, arxeologiya, antropologiya, biologiya va geografiya fanlari ham inson hamda jamiyat taraqqiyotiga oid muhim ma’lumotlarni taqdim etadi. Inson ta’lim-tarbiya, mehnat va muloqot jarayonida ijtimoiy tajribani o‘zlashtiradi, axloqiy me’yorlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishadi. Shu bilan birga, u mavjud ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga ham o‘z hissasini qo‘shadi. Demak, ta’lim shaxsni jamiyat hayotiga tayyorlash, uning ijtimoiy tajribasini boyitish va ma’naviy kamolotini ta’minlashning muhim vositasidir.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida inson omiliga bo‘lgan munosabat tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda davlat va jamiyat rivojini ta’minlash, iqtisodiy, siyosiy hamda ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda inson salohiyati asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida fuqarolarning bilim darajasi, dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va mas’uliyati alohida o‘rin tutadi [10].

Inson omilining ahamiyati, eng avvalo, shaxsning o‘z bilim va qobiliyatlarini jamiyat taraqqiyoti yo‘lida namoyon eta olishida ko‘rinadi. Buning uchun insonlarga sifatli ta’lim olish, kasbiy malakasini oshirish, mustaqil fikrlash va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur sharoitlar yaratilishi lozim. Ayniqsa, yoshlarning zamonaviy bilimlarni egallashi, kasb-hunar o‘rganishi va jamiyat hayotidagi o‘z o‘rnini anglab yetishi mamlakat kelajagi bilan bevosita bog‘liqdir [11].

Inson kapitali tushunchasi ham aynan shu jarayon bilan chambarchas aloqador. Inson kapitali deganda shaxsning bilimlari, kasbiy ko‘nikmalari, tajribasi, salohiyati va mehnat faoliyatida namoyon bo‘ladigan imkoniyatlari tushuniladi. Ushbu salohiyatni rivojlantirishda ta’lim tizimining o‘rni katta. Chunki ta’lim inson kapitalini shakllantiruvchi, uni muntazam boyitib boruvchi va jamiyat ehtiyojlariga moslashtiruvchi asosiy ijtimoiy mexanizmlardan biridir [12].

Shu nuqtayi nazardan, inson mehnat salohiyatini rivojlantirish, undan samarali foydalanish va fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan hisoblanadi. Ta’limning mazmunini takomillashtirish, yosh avlodda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish inson omilining imkoniyatlarini kengaytiradi. Demak, fuqarolik jamiyati rivojlanishida ta’lim nafaqat

bilim beruvchi tizim, balki ongli, mas’uliyatli va faol shaxsni tarbiyalovchi muhim ijtimoiy-falsafiy institut sifatida namoyon bo‘ladi [13].

XULOSA.O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarining kengayishi hamda jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar inson omilining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ushbu jarayonlarni falsafiy jihatdan tahlil qilishda inson salohiyati, uning bilim darajasi, kasbiy malakasi va ijtimoiy faolligiga alohida e’tibor qaratish lozim. Chunki demokratik va huquqiy davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish faqat institutsional o‘zgarishlar bilan cheklanmaydi. Bu jarayon, avvalo, jamiyat a’zolarining ongli ishtiroki, ma’naviy yetukligi va mas’uliyatli faoliyatiga ham bog‘liqdir. Shu sababli inson salohiyatini rivojlantirish va mehnat samaradorligini oshirish masalalari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan muhim hisoblanadi [14].

Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar insonning intellektual salohiyati, kasbiy tayyorgarligi va yangiliklarga moslashish qobiliyatini doimiy ravishda rivojlantirib borishni talab etmoqda. Mutaxassisning o‘z ustida ishlamasligi, bilim va malakasini yangilamasligi uning kasbiy faoliyat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois ta’lim tizimida uzluksiz bilim olish, mustaqil izlanish, kasbiy rivojlanish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Bunday yondashuv insonning intellektual faolligini saqlash va uning jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Jamiyatning turli sohalarini modernizatsiya qilish jarayonida zamonaviy bilim va xalqaro talablar asosida faoliyat yurita oladigan malakali kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu esa yosh avlodni tarbiyalashda ta’lim muassasalari bilan bir qatorda, oila, mahalla, jamoat tashkilotlari va boshqa ijtimoiy institutlarning ham mas’uliyatini oshiradi. Ayniqsa, ta’lim va tarbiya jarayonining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash, yoshlarda insonparvarlik, vatanparvarlik, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda aholining, xususan, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish muhim shartlardan biridir. Yosh avlodning jamiyat hayotidagi ishtiroki, ularning bilimli, tashabbuskor va mas’uliyatli bo‘lib voyaga yetishi ijtimoiy taraqqiyotga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, davlat va jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan ta’limiy, ma’naviy-ma’rifiy dasturlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularning ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun uning individual qobiliyatlari va ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga sharoit yaratish zarur. Bunda ta’lim jarayoni insonning faqat kasbiy bilimlarini shakllantirish bilan cheklanmasdan, uning mustaqil qaror qabul qilish, yangicha fikrlash va muammolarga ijodiy yondashish qobiliyatlarini ham rivojlantirishi lozim. Inson omilini faollashtirishda kasbiy bilimlarni muntazam takomillashtirish, mehnat faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Umuman olganda, inson jamiyatning eng muhim boyligi va taraqqiyotning asosiy subyekti hisoblanadi. Shu sababli har qanday ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning samarasi, avvalo, inson hayotidagi o‘zgarishlar, uning bilim darajasi, turmush sifati va ijtimoiy imkoniyatlari

bilan chambarchas bog‘liq. Ta’lim esa ushbu jarayonlarning asosiy tayanchlaridan biri sifatida insonning intellektual, ma’naviy va kasbiy salohiyatini rivojlantiradi. Demak, inson va jamiyat munosabatlarida ta’limning falsafiy funksiyalari shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlash, uning dunyoqarashini shakllantirish, ma’naviy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazish hamda jamiyat taraqqiyotida ongli ishtirokini ta’minlashda namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1.Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.

2.Nazarov, Q. (mas’ul muharrir). Falsafa: qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq, 2004. – 496 b.

3.Shodmonova, Sh.S. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Sano-Standart, 2022. – 470 b.

4.Hashimov, K., Nishonova, S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. – 304 b.

5.Usmonov, B.Sh., Qodirov, M.Q., Eltazarov, J.D. Inson kapitalining shakllanishida ta’lim va ilm-fanning roli. – Samarqand: SamDU, 2015.

6.Bekmurodov, M. Inson kapitali – taraqqiyot omili. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.

7.Dewey, J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. – New York: Macmillan, 1916.

8.Durkheim, É. Éducation et sociologie. – Paris: Félix Alcan, 1922.

9.Freire, P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Herder and Herder, 1970.

10.Berger, P.L., Luckmann, T. The Social Construction of Reality. – New York: Doubleday, 1966.

11.Becker, G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – Chicago: The University of Chicago Press, 1993. – 412 p.

12.Schultz, T.W. Investment in Human Capital: The Role of Education and of Research. – New York: Free Press, 1971. – 272 p.

13.Curren, R. (ed.). A Companion to the Philosophy of Education. – Oxford: Blackwell Publishing, 2003.

14.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.